


Vatanim

Men dunyoni nima qildim, O‘zing yorug‘ jahonim. O‘zim xoqon, O‘zim sulton Sen taxti Sulaymonim. Yolg‘izim, Yagonam deymi, Topingan koshonam deymi, O‘zing mening ulug‘lardan Ulug‘imsan, Vatanim...



Shodon kunim gul otgan sen, Chechak otgan izimga, Nolon kunim yupatgan sen, Yuzing bosib yuzimga. Singlim deymi, Onam deymi, Hamdard-u hamxonam deymi, Oftobdan ham o‘zing mehri Ilig‘imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan, Xalqda tumor, Balxda dorga osilgan. Navoiysan, shoh yonida Faqirni duo qilgan. Yassaviysan, meniki deb, Ko‘ringan da’vo qilgan, Ming bir yog‘i ochilmagan Qo‘rig‘imsan, Vatanim.

Sen Xo‘jandsan, Chingizlarga Darbozasin ochmagan, Temur Malik orqasidan Sirdaryoga sakragan. Muqannasan qorachig‘i Olov larga sachragan, Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon: Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon, Kim Enasoy tomonda, Jaloliddin — Kurdistonda, Boburing — Hindistonda, Bu qanday yuz qarolik deb, Yotarlar zimistonda. Tarqab ketgan to‘qson olti Urug‘imsan, Vatanim...

O‘g‘lim, desang osmonlarga G‘irot bo‘lib uchgayman, Chambil yurtda Alpomishga Navkar bo‘lib tushgayman, Padarkushdan pana qilib Ulug‘beking quchgayman, G‘ichir-g‘ichir tishimdagi So‘lig‘imsan, Vatanim...

O‘tgan kuning — o‘tgan kundir, O‘z boshingga yetgan kun, Qodiriyni bergen zamin, Qodiriyni sotgan kun. Qo‘lin bog‘lab, Dilin dog‘lab, Yetaklashib ketgan kun, Voh bolam! deb aytolmagan Dudug‘imsan, Vatanim...

Sen — shoxlari osmonlarga Tegib turgan chinorim, Ota desam, O‘g‘lim deb, Bosh egib turgan chinorim, Qo‘ynimdagи iftixorim, Bo‘ynimdagи tumorim, O‘zing mening ulug‘lardan Ulug‘imsan, Vatanim!